

YANGI O‘ZBEKISTONDA OILA VA XOTIN- QIZLARGA E‘TIBOR, GENDER TENGLIKNI TA‘MINLASHDA ULARNING IJTIMOIIY-SIYOSIIY FAOLLIGI

Ne‘matova Mavsuma Ulug‘bek qizi

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
talabasi*

***Annotatsiya:** Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti bir qator omillar asosida yuzaga keladi. Bu jarayonda ayollar, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta‘minlanganligi masalasi – davlatlar rivojining hamda demokratiyaning muhim indeksi sanaladi. Zotan, ayol va uning jamiyat hayotidagi o‘rni hamisha muhim mezon bo‘lib kelgan.*

***Kalit so‘zlar:** gender tengligi, ijtimoiy faollik, siyosat, globallashuv jarayoni, jamiyat, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, xotin-qizlar huquqi.*

Bugungi globallashuv jarayonida yangi avlodning har qanday sharoitga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasida xotin-qizlarning o‘rni va hayotdagi roli har bir jarayonda muhim bo‘lib kelgan. Shu bois, islohotlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi g‘oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo‘llab-quvvatlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa‘y-harakatlar, o‘zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishlarini ta‘minlashdan iborat. Ta‘kidlash joizki, bugungi kunda Yurtboshimiz boshchiligida Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish sari dadil qadamlar qo‘ymoqdamiz. Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar yurtimizdagi xotin-qizlarning baxti asosiga qurilmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mamlakatimizda ayol qadrini yuksaltirish borasida amalga oshiriladigan keng qamrovli islohotlar, albatta, bu borada huquqiy asoslar yaratilganligi va muntazam takomillashtirib borilayotganligi bilan hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar» deb belgilanganligi mamlakatimizda gender tenglikni ta‘minlash, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini oshirish borasidagi tizimli islohotlar uchun bosh huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Oxirgi yillarda amalga oshirilgan islohotlarning natijasi o‘laroq, milliy parlamentimizda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, 32 foizni tashkil etdi. Xotin-qizlarning tadbirkorlik sohasidagi ulushi 35 foiz va oliy ta‘limda 46 foizdan yuqori. Davlat boshqaruvida 1,5 mingga yaqin mutaxassis xotin-qiz turli darajadagi rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritib, tizimda ayollarning ulushi 33 foizni tashkil etmoqda hamda rahbar xotin-qizlarni tayyorlash

bo'yicha alohida o'quv kurslar tashkil etilib unda 100 nafardan ziyod xotin-qizlar ta'lim olishi ko'zda tutilgan.

E'tirof etish kerak, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyatdagi rolini kuchaytirish, oila institutini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlari yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. O'zbekiston xotin-qizlarni har qanday kamsitish va tahqirlashlardan himoya qiladigan barcha asosiy xalqaro hujjatlarga qo'shildi. Bunda «Onalikni muhofaza qilish to'g'risida»gi Jeneva Konvensiyasi, «Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risida»gi hamda «Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida»gi Nyu-York Konvensiyalari, «Birlashgan Millatlar Tashkilotining transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasini to'ldiruvchi odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqidagi» Bayonnomasi kabi xalqaro hujjatlarni misol qilib keltirish mumkin.

Hech shubhasiz, ayollarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini to'laqonli ta'minlash, ularni ijtimoiy-iqtisodiy hamda huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasidagi islohotlar yurtimizda gender tenglikni va teng huquqlilikni ta'minlashdagi ijtimoiy adolat namunasidir.

Shu asnoda, «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmon bilan 2022–2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur hamda Milliy dasturni 2022–2023 yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

- OTM, texnikum va kollejlarda, sirtqi va kechki ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlar kontraktlarini to'lash uchun 7 yilga foizsiz kredit berish uchun banklarga byudjetdan har yili 1,8 trillion so'm yo'naltiriladi;
- Davlat OTMlarida magistraturada o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari qoplab beriladi va bunga har yili kamida 200 milliard so'm ajratiladi;
- Xorijiy OTMlarga bakalavriat uchun – 50 nafar, magistratura uchun – 10 nafar xotin-qizlarga har yili “El-yurt umidi” jamg'armasi orqali qo'shimcha grantlar ajratiladi;
- Har yili 2 100 nafar ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki o'tanasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning ta'lim kontraktlari mahalliy byudjetdan to'lab beriladi;
- Mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan 500 nafar xotin-qizlar har yili Oila va xotin-qizlar davlat

qo‘mitasi tavsiyanomalariga asosan davlat OTMLariga umumiy kvotadan tashqari alohida test sinovlari natijalariga muvofiq kontrakt asosida o‘qishga qabul qilinadi;

- Davlat ilmiy tashkilotlari yoki OTM doktoranturasiga xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratib boriladi.

Qabul qilingan Farmon xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, ularning oila va jamiyatdagi o‘rni va mavqeini mustahkamlashga, salohiyatini to‘la namoyon etishiga, oilalardagi ijtimoiy-ma‘naviy muhitni yanada sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi.

Mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning ta‘lim va kasbiy ko‘nikmalar olishi hamda bandligini ta‘minlashga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo‘llab-quvvatlash, joylarda “Ayollar daftari”ni shakllantirish va unga kiritilgan xotin-qizlar muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlarini tizimli o‘rganish, tahlil qilish va hal etish borasidagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida, shuningdek, “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq quyidagi ishlar ko‘rib chiqildi:

- ✓ xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish;

- ✓ xotin-qizlarning ta‘lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish;

- ✓ hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish;

- ✓ turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta‘minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko‘paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash;

- ✓ xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor masalalarni chuqur tahlil qilish, ilg‘or tajribalar asosida mavjud muammolarni hal qilish bo‘yicha qonunchilik va amaliyotni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- ✓ xotin-qizlarning oilalarni mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda ularning farzand tarbiyasidagi rolini oshirish choralarni ko‘rish;

✓ hududiy xotin-qizlar jamoatchilik kengashlari, mahallalardagi “Ayollar maslahat kengashlari” faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning davlat va jamoat tashkilotlari bilan samarali hamkorligini ta’minlash, ularga uslubiy-amaliy ko’maklashish;

2021 yilda “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash jamg’armasi hisobidan boquvchisini yo’qotgan, nogironligi bo’lgan va o’zgaralar parvarishiga muhtoj xotin-qizlarga bir martalik moddiy yordam ko’rsatish uchun 80 milliard so’m, shuningdek, noturar joylarda istiqomat qilayotgan xotin-qizlarga turar joy ijarasi kompensatsiyasini to’lash uchun 11 milliard so’m, har chorakda mahalliy byudjet prognozining ortiqcha bajarilgan qismining kamida 15 foizini “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash jamg’armasiga yo’naltirildi.

Sir emaski, yangi Uyg’onish davri, avvalo, ilm-fanning taraqqiyotiga, milliy ma’naviyatning mustahkamligiga bog’liqdir. Mazkur o’tkir haqiqatni chuqur his qilgan holda xotin-qizlarning ta’limi va ilm-fan bilan shug’ullanishlari uchun davlatimiz tomonidan yangi imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Jamiyatda ayollarni ilm-fanga ruhlantirish maqsadida yangi mexanizm – «Olima ayollar jamiyati» tuzilgani hamda uning faoliyatini qo’llab-quvvatlash va yanada rag’batlantirish uchun Davlat byudjetidan 50 milliard so’m ajratilgani barcha xotin-qizlarning ko’nglida jamiyatning eng faol qatlami – «olima ayol» bo’lishga intilishlarini yanada kuchaytirishi ayni haqiqat. Shuningdek, jamiyatimizda olima ayollar ulushini sezilarli oshirish uchun doktorantura yo’nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilganligi bilan ham belgilandi.

Ijtimoiy himoya tizimida mutlaqo yangi yo’nalish – xotin-qizlar muammolarini o’rganib, hal etish uchun «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari» va «Temir daftar» joriy etildi. «Ayollar daftari» asosida so’nggi 3 yil davomida 400 ming nafarga yaqin xotin-qizning bandligi ta’minlandi. Ehtiyojmandlarining uy-joy ta’minoti, yashash va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini oshirish bo’yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2021-yilda ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion so’m kredit va subsidiyalar ajratilib, 320 ming xotin-qiz doimiy ish o’rniga ega bo’ldi. 190 ming nafar ayol kasb-hunarga o’qitildi. 4 mingdan ziyod xotin-qizlarga uy-joy to’lovining boshlang’ich badaliga mablag’ ajratildi. 2 ming nafar qiz alohida grant asosida oliy ta’limga qabul qilindi. Natijada, o’tgan yili oliy o’quv yurtlariga kirgan talabalarning 60 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Umuman, 2020-yildan boshlab, “Ayollar daftari” tizimi yo’lga qo’yilib, unga kiritilgan 900 mingga yaqin xotin-qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, huquqiy va

psixologik ko‘mak berilgan. Yig‘ilishda bu boradagi navbatdagi dolzarb vazifalar muhokama qilindi.

“Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug‘ kelajagimiz ham ayollarga bog‘liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo‘lishini xohlasak, avvalo, mo‘tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo‘lsa, oila rozi bo‘ladi, oila rozi bo‘lsa, jamiyat rozi bo‘ladi”, – dedi Shavkat Mirziyoyev. Shu bilan birga yaqin kelajakda 2022-2024-yillar uchun “Biznes ayollar” dasturi qabul qilinishi belgilandi. Uning ijrosiga jami 8 trillion so‘m yo‘naltiriladi. Ayollar uchun tadbirkorlik kurslari tashkil etiladi, imtiyozli kreditlar berilishi aytib o‘tilgan.

Bir so‘z bilan aytganda, ayollarning taqdiri, buguni va kelajagi uchun davlat siyosati darajasidagi yuksak e‘tiborning ifodasi bo‘lgan bunday sharoitlar va imtiyozlar mamlakatimiz tarixida hali bo‘lmagan. Bugun opa-singillarimiz qalbida jo‘sh urayotgan shukronalik va yurtdan, Yurtboshidan minnatdorlik hissi amaliy faoliyatimizga ko‘chib, har bir sohada yuksak natijalarga erishishga ruhlantirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanda jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 07.03.2022 yildagi PF-87-son.
2. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 5-mart, 11-mart 2022 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi
4. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/11547>
5. Машарипов, В. У., Мирвалиева, Н. Р., & Абдуллаев, У. М. (2023). Местный иммунитет и специфическая сенсibilizatsiya k antigenam bakteriy u bolnykh tonsillitom. Science and Education, 4(2), 392-400.
6. Turapovna, I. S. (2023, April). TIL BIRLIKLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 14.04, pp. 238-241).